



# AIFU



## Qo'shma gaplar o'rtasidagi semantik xususiyatni o'rganishdagi muammolar talqini

Sevinch Vohidjon qizi Odiljonova

Talaba

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaning umumiy mazmuni shundan iboratdir, bu maqolada qo'shma gaplar haqida qisqacha ma'lumotlar, nazariy fikrlar keltiriladi. Shu bilan birga qo'shma gap turlari o'rtasida semantik xususiyatlar ifodalanadi va bir nechta muammolar misollar orqali tahlil qilinadi. Maqola so'nggidachi qarilgan va yuzaga kelgan xulosalar bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** parataksemik qo'shma gap, gipotaksemi qo'shma gap, kollotaksemik qo'shma gap, semantik uyg'unlik, sinonimlik, bog'lovchi vositalar.

Tilshunoslikda o'rganilayotgan asosiy mavzulardan biri qo'shma gaplar mavzusi hisoblanadi. Qo'shma gaplarning tadqiqi ustida ko'plab olim-u olimalar, professorlar izlanishlar olib borgan va olib boryapti. Ko'rinib turibdiki, qo'shma gaplarni har tomonlama tadqiq etish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi. Qo'shma gap va uning turlari, qo'shma gaplarning tabiati masalalari rus va yevropa tilshunosliklar qatori o'zbek tilshunosligida ham keng, atroflicha o'rganilgan. Bu sohada, ayniqsa, akademik G'.Abdurahmonov va M. Asqarovalarning xizmatlarini alohida aytib o'tish kerak. Shuningdek, A. Gulomov, H.G'oziyev, F.Kamolov, E.Grunina, X.Abdurahmonov, A.Numonov va boshqalar ham o'zbek tilida qo'shma gap sintaksisini o'rganish va rivojlantirishga munosib hissa qo'shganlar. Qo'shma gaplar haqida shunday deyilgan: «Mazmuni, grammatik tuzilishi hamda intonatsiyasiga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan, bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida birikkan konstruksiyalar qo'shma gapni tashkil etadi.»[1.114]

225

Qo'shma gaplardagi muammolar, asosan, grammatik, semantik, tarjima kabi turli kategoriyalar bo'yicha o'rganiladi. Bilamizki, qo'shma gaplar o'rtasida ham ma'noviy yaxlitlikni uchratish mumkin. Ya'ni, ularning grammatik tuzilishi farqli bo'lsa ham, ma'nolari bir xil bo'ladi. Biror mazmuni ifodalash uchun xizmat qilgan qo'shma gaplar grammatik, leksik-grammatik va leksikvositalar yordamida o'zaro birikadi. Bunday konstruksiyali gaplar oddiy yig'indi bo'lmay, yangi bir strukturani, alohida sifatni tashkil etganligi uchun ham sintaksisning alohida tekshirish obyekti hisoblanadi. Mana shu qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar va ular bildirgan ma'nolari orqali bir nechta muammolarni tahlil qilamiz.

Bilamizki, bir qancha turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham qo'shma gaplarning qanday mazmun-munosabat ifodalashi, grammatikbelgilari, tuzilishi va intonatsiyasiga ko'ra uch xil turi, ya'ni parataksemik (bog'langan), gipotaksemik (ergashgan) hamda kallotaksemik (bog'lovchisiz) qo'shma gap turlari mavjud. Bu

qo'shma gaplar bir-biridan bog'lovchi vositalar orqali farqlanadi. Ammo ularning o'rtasida sinonimlik xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin.

Masalan, bog'lovchisiz qo'shma gap qolgan ikki turdagi qo'shma gaplar bilan sinonimlik hosil qila oladi, gipotaksemik va kallotaksemik qo'shma gaplar o'rtasidagi ma'noviy o'xshashlikni quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz:

«Eng kulgili joyi **shundaki**, bolalar baribir bilishadi.»[2.14]

«Eng kulgili joyi-bolalar baribir bilishadi».

Berilgan ushbu misollarda faqat bog'lovchi vositalaridagi farqni ko'ra olamiz xolos, ma'nosi esa bir xil. Aytmoqchimizki, bunday gaplarni ifodalash uchun yuqoridagi qo'shma gaplarning har ikki turidan foydalanish mumkin.

Keyingi sinonimlik hosil qila oladigan qo'shma gap turlari parataksemik va kallotaksemik qo'shma gaplar hisoblanadi. Ular anglata oladigan payt, ketma-ketlik, zidlash, ayirish ma'nolari sinonimlik hosil qilishdagi asosiy sabablar hisoblanadi. Mana shu ma'nolarni hosil qilishdagi bog'lovchi vositalar orqali bu gap turlari bir-biridan ajraladi." Bog'lovchi vositalar faqat qo'shma gaplarni bog'labgina qolmasdan, qo'shma gap qismlari o'rtasida ma'lum semantik munosabatlarning o'rnatilishi uchun ham xizmat qiladi «.[1.291]

M: «Ba'zi birovlarining tusi chiroyli bo'ladi, ba'zi birovlariniki **esa** sovuq, xunuk bo'ladi» [3.223]

«Ba'zi birovlarining tusi chiroyli bo'ladi, ba'zi birovlariniki- sovuq, xunuk»

Bu misoldagi gaplarda leksik vosita orqali bog'langan parataksemik qo'shma gap va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning mazmunida deyarli farq yo'q. Endi esa bir misol orqali barcha qo'shma gap turlarini hosil qilamiz:

1. *Gipotaksemik qo'shma gap:* «Xotin uning yuziga xo'mrayib qaradi-**da**, zarda qilib uyiga kirib ketdi»[4.1].

2. *Parataksemik qo'shma gap:* «Xotin uning yuziga xo'mrayib qaradi **va** zarda qilib uyiga kirib ketdi».

3. *Kallotaksemik qo'shma gap:* «Xotin uning yuziga xo'mrayib qaradi; zarda qilib uyiga kirib ketdi».

Ushbu gaplardan ma'lumki, barcha gap turlari bir-biri bilan sinonimlik hosil qila oladi. Mana shu yerda bir savol paydo bo'ladi: agar barcha qo'shma gap turlari bir ma'noni anglata olsa, ulardagi bog'lovchi vositalar va bu qo'shma gaplarni turlarga ajratish nima uchun kerak? Buning javobi shundaki, qo'shma gap turlari bizning nutqimizda, yozuvda, ya'ni biror asarlarda, umuman olganda, uslublardan foydalanishimizda katta ahamiyatga ega.

Parataksemik va gipotaksemik qo'shma gaplarni bog'lovchi vositalarning ko'pi gapdagi mazmun va maqsadni yaqqol ochib berishga, ularni tushunarliroq ifodalashga ko'mak beradi. Shu bilan birga bog'lovchisiz qo'shma gap esa, asosan, intonatsiyaga bog'liq bo'lib, undagi ma'no-mazmunni ohang yordamida anglaymiz, shu sababli yozuvda undagi ma'no biroz yashirin bo'ladi. «Intonatsiya sodda gapni biriktirib, bog'lovchisiz qo'shma gap hosil qilishda muhim ro'l o'ynaydi: Qo'shni keldi- ko'mak keldi.(Maqol) «[5.299] Bu turdagi qo'shma gaplarni, asosan, she'riyatda, maqol yoki topishmoqlarda uchratishimiz mumkin.

«Zarga o'ralgan bilan kesak hamisha kesak-

*Choldevor o'rtasida ko'milgan bir xum oltin.» (Abdulla Oripov)*

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, qo'shma gaplarning tabiatiga ko'ra uch xil turi bor va ular o'rtasida ayrim o'xshash va noo'xshash jihatlar mavjud. Qo'shma gaplardagi ularni bog'lovchi vositalar ma'lum ma'no yaratish bilan birga shu gapni ifodalash va tushunarliroq qilish vazifasini bajaradi. Yuqorida tahlil qilingan misollar va ulardagi muammolar orqali qo'shma gaplardagi ma'noviy

o'xshashliklar tushuntirildi. Ammo anglab yetganimizdek, qo'shma gap turlari va ularni bog'lovchi vositalarning maxsus vazifalari mavjud.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T, -1979
2. Shukur Xolmirzayev. O'zbeklar. t.me/e\_kutubxona
3. Nodar Dumbadze. Men, buvim, Iliko va Illarion. T, -1983
4. Abdulla Qahhor. Mayiz yemagan xotin. t.me/e\_kutubxona
5. O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis. T, -1976
6. Najmiddinova, M. R., & Jalolova, S. M. (2021). CONTRASTIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PUNCTUATION RULES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 1-5.
7. BALANCES, O. S. W. O. C. ROOTABLE LAYER IN EXPERIMENTAL PRODUCTION SECTIONS. *Ozatboy Bazarovich Imamnazarov, Tokhirjon Olimjonovich Qosimov, Makhmaddali Rustamjonovich Abdullaev ISSN, 2349-0721*.
8. IMAMNAZAROV, O. B., QOSIMOV, T. O., & ABDULLAEV, M. R. (2020). Balances Of Soil Waters Of Cotton Rootable Layer In Experimental Production Sections. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 318-321.
9. Jalolova, S. M., Otakulov, N. B., Urmonova, N. M., & Nazarova, D. O. (2022). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(4).
10. Odilov, B., & Karimov, N. (2022). COVERAGE OF ECONOMIC AND CULTURAL TRADITIONS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE IN ETHNOLOGICAL RESEARCH (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY). *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(3).
11. Имамназаров, О. Б. (1993). Регулирование мелиоративного режима при близком залегании слабоминерализованных грунтовых вод.
12. АГЗАМОВА, Д. Б. (2018). COGNITIVE ANALYSIS OF METAPHORIC PHRASES OF THE CONCEPT "MEMORY" IN THE ENGLISH AND UZBEK BELLES-LETTRES TEXTS. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 94-100.
13. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).
14. Makhmaddovna, M. F., & Agzamova, D. B. (2021). Psycholinguistic studies of pre-wedding and wedding traditions (on the basis of English and Uzbek phraseological units). *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
15. Shodmonov, A. (2022). Coverage of titles in Central Asian Hellenistic Sources. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 11, 24-26.
16. Abdullaeva, M., Jalolova, S., Kengboyeva, M., & Davlatova, K. (2021). Universal Human Values as Axiological Values. *REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS*, 11(2), 802-816.
17. Davlatova, K., & Nematov, O. (2021, November). Traditional jeweleries and decorations. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 26-28).
18. Shodmonov, A. A. (2021). THE FORMATION OF PRIMITIVE CONSCIOUSNESS AND THE PROCESSES BY WHICH HUMANS ADAPT TO NATURE. *Scientific progress*, 2(6), 1571-1574.